



## HALIMA AHMEDOVA ASARLARIDA EPIFORA VA ANAFORALARNING QO'LLANILISHI

*NavDPI tayanch doktoranti*

*Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi: Abdullayev Umidjon*

*Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc), prof. Ernazarova Manzura Saparboyevna*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Halima Ahmedova she'riyatida qo'llangan takrorning xususiyatlari o'rganilgan. Ular orqali yuzaga chiqayotgan ma'nolar, takrorlarning qo'llanish o'rniga ko'ra turlari tahlil etilgan. Takrorga stilistik vosita sifatida qaralib, og'zaki va yozma nutqning tashkil etuvchilari bo'lgan til birliklariga emotsional bo'yoq va she'riy ohang berish vazifasini bajarishi ta'kidlangan. Bu fikrlar shoira Halima Ahmedovaning she'rlarida qo'llangan takrorning anafora va epifora turlari misolida dalillangan.*

***Kalit so'zlar:*** *takror, anafora, assonans, konsonans, rifma, tautologiya, epifora, obrazlilik.*

### ANNOTATION

*This article examines the features of repetition used in the poetry of Halima Akhmedova. The meanings emerging through them, the types of repetitions according to the place of use are analyzed. Repetition is considered as a stylistic tool, and it is emphasized that it performs the task of giving emotional color and poetic tone to the language units that are the constituents of oral and written speech. These ideas are proved by the examples of anaphora and epiphora types of repetition used in the poems of the poetess Halima Akhmedova.*



**Key words:** *repetition, anaphora, assonance, consonance, rhyme, tautology, epiphora, imagery.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются особенности повтора, используемые в поэзии Халимы Ахмедовой. Анализируются проявляющиеся через них смыслы, виды повторов по месту употребления. Повтор рассматривается как стилистический инструмент и подчеркивается, что он выполняет задачу придания эмоциональной окраски и поэтического тона языковым единицам, входящим в состав устной и письменной речи. Эти идеи подтверждаются примерами анафорного и эпифорного типов повторения, используемых в стихотворениях поэтессы Халимы Ахмедовой.*

**Ключевые слова:** *повтор, анафора, ассонанс, созвучие, рифма, тавтология, эпифора, образность.*

Tilimizda mavjud har bir uslubda qo'llanayotgan so'z anglatgan ma'noni tinglovchi yoxud o'quvchi ko'z o'ngida yanada ravshanlashtirish asosiy o'rin tutadi. Bunda anglashilayotgan ma'noni ta'kidlab, alohida ajratib, zarur o'rinlarda qayta qo'llab bu natijaga erishish mumkin. Ana shu jihatga ko'ra takror badiiy uslubda eng faol qo'llaniladigan stilistik usullardan biridir. "Badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina ma'lum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat bo'lsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subyektiv munosabatini ham bera olishi kerak." Til birliklarining, xususan so'z, ba'zan so'z birikmasining qaysi o'rinda takrorlanib kelishiga ko'ra takrorning bir qancha turlari mavjud bo'lib, umumiy holda ular o'ttizga yaqinni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda takrorning alliteratsiya,



anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, tautologiya kabi turli xil ko‘rinishlari farqlanadi. Shunga ko‘ra, she’r yoki bandning boshida kelgan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap har bir misra yoki band boshida takrorlanib kelishi anaforani tashkil qiladi. O‘rinli takrorlari, beqiyos jozibador ohangli misralari bilan adabiyot olamida alohida o‘rin tutgan shoira Halima Ahmedova she’rlarida ham takrorning ushbu turi – anaforadan ko‘p bor foydalangan. Shubhasiz, bu orqali she’r jozibador ohang va bo‘yoq bilan ta’minlangan. Shoira qo‘llagan anaforalar soddaligi bilan she’rxonning ko‘z o‘ngida jonlanayotgan manzarani yanada ravshan va aniq ko‘rinishda namoyon etadi:

Bunda o‘zin yoqqan qirq olti bahor

Bu esa yodgordir qaysi g‘animdan

Ko‘zimga tik qarab o‘sayotgan xor

Bunda sukunat bor

Bunda bor umid.

Hali jon berolmay qiynalayotgan

Bunda bor kuzakdan ortgan maysalar

Nenidir aytolmay qiynalayotgan.

Bunda nur va zulmat bahsi qizigan

Kun bermay yashaydi hech bir-biriga...

Shoiraning ushbu misralaridagi bunda so‘zining takrorlanishi uslubiy jihatdan anaforani tashkil etgan, badiiy jihatdan esa she’rdagi fikrning ifodasini ta’kidlab ko‘rsatish bilan bir qatorda ohangdorlikni ham ta’minlagan.

Poklaning...



Bolalikning shaffof qalbida qolgan

Nafis kapalakning qanoti bilan

Tog‘lar sog‘inchini bo‘zlab yig‘lagan

Qafasdagi kaklik bayoti bilan.

Poklaning –

Haqorat zanjirin uzolgan so‘zning

G‘ururday otashin haroratida

Ochlikni yupatgan gado ko‘zida

Porlab turgan nurning saodatida

Poklaning –

Poklanish mumkin bermalol

Soyga o‘ynab tushgan oying aksidan...

Harir pardasini shamol o‘ynagan

Lingvopoetika atamasi badiiy asar tilini o‘rganishda nisbatan keng qamrovli tushunchani o‘z ichiga olib, asarning badiiyligini ta‘minlovchi unsurlarni tilning barcha sathlari doirasida o‘rganadi. Shu o‘rinda “poetika” atamasiga ham shunday ta‘rif berishimiz mumkin: “Badiiy asar tuzilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, ya’ni badiiy nutq va uning xarakteri, turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini qamrab oluvchi obyektga nisbatan poetika tamasi qo‘llaniladi”. “Poetika” atamasiga sinonim sifatida “Badiiyat” so‘zini ham qo‘llashimiz mumkin.



Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari, va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon yaratadi. Chunki lingvopoetika o'z mazmun mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'z ichida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta'minlashga qaratilgan. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari asosida aks ettirilishi, umuman tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Badiiy asar tilini tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi jumlar tez-tez qo'llaniladi. Ammo shuni ham alohida aytish joizki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan keng qo'llaniladi. Agarda biz biron badiiy asarni tahlil qilishga tortishimiz avvalida u qanday matnlardan tashkil topganini va undagi so'zlar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'lingani haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Xususan, barcha badiiy asarlar badiiy matnlardan tashkil topgan, badiiy matnlar esa o'zida "estetik vosita" ni jamlagan gaplardan iboratdir. Shu jarayonda yana bir narsani unutib qo'ymaslik maqsadga muvofiqdir. "Estetik vosita" faqat badiiy adabiyotda yozma manbalarda emas, balki so'zlashuv uslubida ham keng qo'llanishi mumkin. Shundan kelib chiqib fikr qilsak "estetik vosita" o'z ko'lamini ekspressivlik, badiiylik va poetiklik atamalari bilan kengaytirib oladi.

Sinonimlar esa o'zbek tilining lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib, tilda bu kabi so'zlarning ko'pligi, tilning estetik vazifasini yanada yorqinroq yuzaga chiqarishga yordam beradi. Matnlarda sinonimlarni qo'llashdan ikki maqsad ko'zda tutiladi: qaytariqlarni oldini olish va emotsional ekspressivlikni oshirish.

Ijodkorning individual ijodini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Vashu tarzda shoira



ijodiy tafakkurining o'ziga xos jihatlarini qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi. Ijodkorlar o'z asarlaridatilimizdagi sinonimlardan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib qo'llashga harakat qiladilar, buning uchun sinonimlarning qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagi xususiyatiga e'tibor qaratadilar. Sinonimlarning amaliy ahamiyati shundaki, tilga olingan xususiyatlar, ular ifodalashi zarur bo'lgan mazmun uchun eng maqbulini tanlash imkoniyatini beradi. Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetikasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning she'rlarida ritm, ohangdorlik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shoiraning o'ziga xos ifoda usuli, xalq og'zaki ijodiga xos ko'p ma'nolilik, xalq qo'shiqlariga yaqin ohangdorlik, sinonimlardan o'z o'rnida, to'g'ri va unumli foydalanish mavjud bo'lib, uning she'rlariga o'zgacha ruh, ritm mahorat bilan singdirib yuborilgan, natijada adabiy til bilan jonli tilning qorishiq holda kelishi, shoira ijodining jozibaliligi, soddaliligi va tushunarligini ta'minlagan. Shoira she'rlarida emotsional-ekspressiv leksikaning manbasi hisoblangan sinonimlardan qanchalik ustalik bilan keng foydalanganligini uning she'rlari tahlilida yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Toza yurak tovonlarda toptalgan mahal,

Azal ko'z yosh qayg'u g'amgayem bo'lib kelgan.

Makr-u hiylabijg'igan bu dunyoda azal,

Qo'zichoqlar bo'rilarga yem bo'lib kelgan. ("Bo'rilar esshigida" 21-bet)

Ushbu she'rda qo'llangan qayg'u –g'am, makr-u hiyla so'zlari o'zaro sinonimlikni hosil qilgan bo'lib, sinonimlarning bu holatda ishlatilishi lirik qahramon tuyg'ularining asl holatini ochib berishga xizmat qiladi. "Qayg'u –boshga tushgan ruhiy azob, g'am, musibat" "G'am-so'zi esa arabcha so'zdan olingan bo'lib, qayg'u, hasrat, g'am alam degan ma'nolarni bildiradi.. Keyingi misralarda qo'llanilgan makr-so'zi arabchadan olingan bo'lib hiyla, nayrang, aldov ma'nolarini ifodalasa, unga



sinonim bo‘lib kelgan makr so‘zi ham arabcha so‘z hisoblanib, makkorlik, ayyorlik ma’nolarida keladi. Shoira ushbu sinonimlarni yonma yon qo‘llash bilan she’rning jozibadorligini yanada oshirgan. O‘z davrida haqiqat deb kurashgan qahramon makr-u hiyla to‘la dunyoda qayg‘u g‘amga yem bo‘layotgani va bu kurashga otlangan qahramon doimo bo‘rilarga yem bo‘lib kelayotgani o‘z ifodasini topgan.

Ota dunyo, bu o‘ylarni o‘zing hal qil yech,

Bolalaring ehtiyot qil har cho‘pdan, xasdan.

Loqayd bo‘lmay sharsharaning toza suvin ich,

Bilib-bilmay kimdir uni loyqalatmasdan. (“Xayollarim parday to‘zg‘ir”, 48-bet)

Misralarda qo‘llanilgan: “Cho‘p-forscha darxt, yog‘och, xoda, novda, shox bo‘lagi...” ma’nosini ifodalasa, “Xas-xashak, shox-shabba, quruq shoxcha, quruq o‘simlik poyasi” (O‘TIL, 387-bet) ma’nolarini anglatadi. Ketma-ket keltirilgan bu ma’nodosh so‘zlar she’rning ifoda mazmunini ochib berish bilan birga unga emotsional-ekspressivlik ham bag‘ishlashga xizmat qilgan. Ko‘rinadiki, Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida emotsional ekspressiv leksikaning birlamchi manbasi bo‘lgan sinonimlardan keng foydalanilgan. Shoira she’rlarining lug‘aviy tarkibi juda boy va rang-barang bo‘lib, ularda so‘zlarning o‘rinsiz takrori uchramaydi. Bunga esa shoira aynan sinonim so‘zlardan mohirona foydalanganligi tufayli erishgan. She’riyatda sinonimlarning bu kabi to‘g‘ri va o‘rinli ishlatilishi asar qimmatini va qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Shoira sinonimlarni o‘rinli qo‘llashda quyidagi maqsadlar ham to‘laqonli yuzaga chiqqan:

- Badiiy ifodaning ta’sirchanligini oshirish;
- So‘zlarni takror ishlatishdan qochish;
- Uslubning ravonligi;
- Fikrni aniq, lo‘nda, ixcham ifodalash;
- O‘zbek tilining lug‘at tarkibi boy ekanini namoyish etish;



-Misralarni vaznga solish,qofiya hosil qilish,turli badiiy san'atlarni yuzaga keltirish va h.o.Sinonimlar tilning lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi, badiiy adabiyot namunlarida tasvirlanayotgan lavha, timsol, voqea-hodisalarning ta'sirchan, jozibali, ohangdor bo'lishiga olib keladi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva ayni bir ma'noni bildiruvchi birdan ortiq til birlilarini muayyan maqsadni ko'zlab qo'llagan va o'z maqsadiga to'laqonli erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.Badiiy adabiyot insonning olamini boyitadi, ruhiyatini tarbiyalaydi, qalbimiz va ongimizda odamiylik hislarini parvarishlaydi.Xuddi shunday tilning boyligi va nutqning jozibadorligi, ta'sirchanligini ta'minlashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonimlar muhim tasviroy vosita sifatida badiiy manzaralar yaratishga, lirik qahramon holatini, ichki kechinmalarini yoritishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdurahmonov X,Mahmudov N.So'z estetikasi.T-Fan,1981.128-b.
2. Umurqulov B.Badiiy adabiyotda so'z.Toshkent.Fan.1993
- 3.Yo'ldoshev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi f.f.d. disser avtoreferat Toshkent 2009
4. Yo'ldoshev M.Badiiy matn lingvopoetikasi. T-Fan.2008
5. Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.T-Fan 2002
6. O'zbek tili leksikologiyasi. T-Fan 1981
7. H.Xudoyberdiyeva. Osoyishta shamT-O'zbekiston,2017
8. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-tom.
9. Ahmedova H. Erk darichasi – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
10. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008 11-bet
11. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008 40-bet
12. (Nuriddinova H. Metafora va uning badiiy matnda ifodalanishi).